

ODIL YOQUBOV IJOD YO'LI. IJODKORNING “MUZQAYMOQ” HIKOYASI TAHLILI

Yoqubova Ruxshona Jasur qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

ruxshonaabdurasulova1106@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20229453>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'z adabiy o'rniga ega ijodkor Odil Yoqubovning qalamiga mansub “Muzqaymoq” hikoyasini tahlilga olamiz. Ushbu hikoyada muallifning bolalik yillaridagi xotiralari orqali o'tmishning og'ir turmush tarzini ifodalab bergan. Hikoyada 10 yashar bola nigohida o'sha davr siyosiy axvoli yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muzqaymoq, adolatsizlik, ota- bola munosabati, ramziy obrazi, qo'rquv.

Аннотация. В этой статье мы проанализируем рассказ «Музqaymoq» известного писателя Одиля Якубова. В этом рассказе автор передает трудности жизни прошлого через воспоминания своего детства. Рассказ освещает политическую ситуацию того времени глазами 10-летнего мальчика.

Ключевые слова: Мороженое, несправедливость, отношения отца и сына, символический образ, страх.

Abstract. In this article, we will analyze the story "Muzqaymoq" by the famous writer Odil Yakubov. In this story, the author expresses the difficult lifestyle of the past through his childhood memories. The story highlights the political situation of that time through the eyes of a 10-year-old boy.

Keywords: Ice cream, injustice, father-son relationship, symbolic image, fear.

KIRISH.

Odil Yoqubov (1926–2009) o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, O'zbekiston xalq yozuvchisi (1985), mohir nasrnavis, publitsist va dramaturg hisoblanadi. Uning ijodiy yo'li o'zbek adabiyotida badiiy tahlil, psixologizm va tarixiy mavzularni yangi bosqichga olib chiqdi. O'tgan asrning 30-yillaridagi Stalinning qatag'on siyosati nafaqat millatning eng ziyoli qatlami hisoblanmish ijodkorlarni, balki o'zining halol mehnati va ilmi bilan yurt manfaatiga hissa qo'shayotgan oddiy o'zbek insonlarini ham olib ketdi.[1.1-b]

Adib bu hikoyani yozish orqali o'sha davrning ayovsiz siyosati oddiy bir bolakayning beg'ubor orzulariga qanchalik og'ir zarba berganini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan. Bu yerda “Muzqaymoq” oddiy shirinlik emas, balki bolalikning baxtli damlari va amalga oshmagan orzular ramzidir.

Asarda o'n yoshli bolaning oilasiga tushgan katta musibat, otasining asossiz hibsga olinishi va uy ichidagi iztirobli holatlar hikoya qilinadi. Bola uchun eng esda qolgan voqea — otasining unga muzqaymoq olib bermoqchi bo'lishi ya'ni, - “Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bolgandim, bu ham nasib qilmadi-yov, bolam!”[2.36-b]. Shu jumlar orqali otaning allaqanday chuqur qayg'usini ifodalagan.

Shu oddiy detal orqali yozuvchi kechikkan mehr, yo‘qotilgan baxt va bolalik armonini ramziy ma’nodan yoritib bergan. Biroq voqealar rivojida otaning ichki dunyosi ochilganini kuzatamiz.

Ayniqsa, o‘g‘lining boshini silab, unga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lishi — uning aslida mehribon ota ekanini ko‘rsatadi.

Lekin aynan shu paytda yuz bergan fojiviy voqea — otaning hibsga olinishi — ota-bola o‘rtasidagi yaqinlikni to‘liq shakllanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Shu sabab asarda ota-bola munosabati tugallanmagan, armonli va yurakka og‘ir botadigan holatda qoladi. Bu kichik, ammo muhim holat ota qalbidagi kechikkan mehr ifodasidir. Eng asosiy ramziy detal — muzqaymoqdir. Hikoyada muzqaymoq razmiy detal bo‘lsa-da, asarda amalga oshmagan orzu, kechikkan mehr va yo‘qotilgan bolalik timsoliga aylanadi. Otaning “muzqaymoq olib beraman” degan va’dasi bajarilmay qolishi esa oila boshiga tushgan fojiviy holatni yanada o‘zgartirib yuboradi.

Asarda begunoh ota “xalq dushmani” sifatida ayblanib, hibsga olinadi.

Bu esa uning oilasi — ayniqsa bolalari uchun katta ruhiy zarba bo‘ladi. Bola voqealarni to‘liq tushunmasa ham, yuragi bilan adolatsizlikni his qiladi. O‘sha davrdagi siyosat, adolatsizlik, bolalarni otasiz qolishi, mehr va baxtni qanday tortib olinishini ko‘rsatiladi.

Adolatsizlik nafaqat inson taqdirini buzadi, balki odamlarning asl yuzini ham ochib beradi.

Ijodkorning “Muzqaymoq” hikoyasida ham shuni ko‘rish mumkin. Asarda qahramonning uyida ham qizil jildli Lenin asarlari saqlangani aytiladi. Bu kitoblar tashqi tomondan oddiydek tuyulsa-da, aslida o‘sha davrda ular orqali ko‘plab insonlarning taqdiri hal bo‘ladi. Kitoblardagi ayrim suratlarining ko‘zlari o‘yib tashlangani yoki ustiga chizib qo‘yilgani esa jamiyatdagi qo‘rquv va shubhaning kuchliligini ko‘rsatadi. Otasining “O‘rtoq Stalin sodiq farzandlarini xor-zor qilib qo‘ymaydi” degan gapni takror-takror aytgani o‘qirmanni yuragini junbushga keltiradi. Asarda ota-bola munosabatini ham ko‘rishimiz mumkin. Hikoyada ota jiddiy, qattiqqo‘l, talabchan inson sifatida ko‘rinadi. U bolaga ko‘p mehr ko‘rsata olmaydi, hatto o‘zining suyanchig‘i bo‘lgan farzandiga qahrli muomala qiladi. Bu holat bolaning qalbida qo‘rquv va tortinish hissini uyg‘otadi.

Hikoyaning badiiy xususiyatlari.

Ramziylik

Muzqaymoqdagi muzqaymoq obrazi ramziy ma’nodan ega. U bolalik quvonchi, armon va yetishmovchilik belgisi sifatida gavdalanadi.

Psixologizm

Yozuvchi inson ruhiyatini nozik detallar orqali ochib beradi. Ayniqsa, bolalar qalbidagi sodda kechinmalar mahorat bilan tasvirlangan.

Odil Yoqubovning “Muzqaymoq” hikoyasi o‘zining chuqur ma’naviy mazmuni va yuksak badiiy mahorati bilan ajralib turadi. Hikoyada oddiy hayotiy voqea orqali katta falsafiy va ruhiy masalalar ochib berilgan. Asarning badiiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Psixologik tasvirning kuchliligi

Hikoyada qahramonlarning ichki kechinmalari tabiiy va ta’sirchan yoritilgan. Ayniqsa, bola ruhiyatidagi quvonch, armon va kutish hissi chuqur psixologik tasvir orqali ifodalanadi.

Muallif voqealarni emas, inson qalbidagi holatlarni tasvirlashga ko‘proq e’tibor beradi.

2. Ramziy detalning qo‘llanishi

Asardagi “muzqaymoq” oddiy predmet bo‘lib qolmay, ramziy ma’no kasb etadi. U: bolalik orzusi; qisqa quvonch; mehr va e’tibor; yetishmovchilik timsoli sifatida xizmat qiladi.

Shu orqali yozuvchi kichik detal vositasida katta ma’naviy mazmuni ifodalagan.

3. Sodda va xalqona uslub

Odil Yoqubovning uslubi sodda, ravon va xalq tiliga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Hikoyadagi dialoglar tabiiy chiqqan bo‘lib, qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladi. Murakkab jumalardan ko‘ra sodda ifodalar qo‘llangani asarning ta’sirchanligini oshiradi.

4. Hayotiylik va realizm

Asarda voqealar sun’iy emas, balki hayotiy tarzda tasvirlangan. Qahramonlarning harakati, ruhiy holati va munosabatlari real hayotga yaqinligi bilan o‘quvchini ishontiradi. Yozuvchi oddiy insonlar hayotidan badiiy xulosa chiqaradi.

5. Kontrast usulidan foydalanish

Hikoyada mehribonlik va befarqlik qarama-qarshi qo‘yiladi. Bola qalbidagi samimiyat bilan ayrim kattalarning loqaydligi o‘rtasidagi ziddiyat asarning dramatik ta’sirini kuchaytiradi.

6. Ixcham kompozitsiya

Hikoya hajman kichik bo‘lsa-da, mazmun jihatidan boydir. Voqealar ortiqcha tafsilotlarsiz bayon qilingan. Har bir detal va epizod muayyan badiiy vazifa bajaradi.

7. Tarbiyaviy ruhning mavjudligi

Asarda insoniylik, mehr-shafqat va bolalar qalbiga e’tibor g‘oyalari ilgari suriladi. Hikoya o‘quvchini yaxshilikka, rahmdillikka va inson qalbini tushunishga undaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur maqolani yozishda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy hamda badiiy-estetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Asarni o‘rganishda obrazlar tizimi, psixologik tasvir vositalari va ramziy detallar ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Shuningdek, yozuvchining boshqa asarlari bilan qiyoslash orqali uning ijodiy uslubi va badiiy mahorati aniqlashga harakat qilindi. Tadqiqot davomida o‘zbek adabiyotshunosligidagi ilmiy manbalar va nazariy qarashlarga tayanildi.

1. Tahliliy metod

Asardagi voqealar tizimi, obrazlar va badiiy vositalar tahlil qilindi. Hikoyaning kompozitsion qurilishi hamda muallif uslubi ilmiy jihatdan o‘rganildi.

2. Qiyosiy metod

“Muzqaymoq” hikoyasidagi bolalar ruhiyati boshqa o‘zbek hikoyalaridagi bolalar obrazlari bilan qiyoslandi. Bu orqali asarning o‘ziga xos jihatlari aniqlandi.

3. Psixologik tahlil usuli

Qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati va hissiy tasvirlari psixologik nuqtayi nazardan tadqiq qilindi.

4. Badiiy-estetik yondashuv

Hikoyadagi ramziy obrazlar, badiiy detallar va tasvir vositalarining estetik ahamiyati ochib berildi.

Asarning mavzusi va g'oyasi

“Muzqaymoq” hikoyasining asosiy mavzusi bolalar qalbi va insoniy mehr masalasidir.

Hikoya markazida oddiy bolalarcha orzu tursa-da, uning zamirida katta ijtimoiy va ma'naviy muammolar mujassam.

Asarning g'oyasi inson qalbini tushunish, ayniqsa, bolalarning his-tuyg'ulariga befarq bo'lmaslik zarurligini anglatadi. Muallif oddiy voqea orqali jamiyatdagi mehr tanqisligi va insoniy sovuqlikni tanqid qiladi.

Hikoyada muzqaymoq nafaqat shirinlik, balki:

bolalik quvonchi;

orzu va havas;

mehrga ehtiyoj;

qisqa baxt lahzasi timsoli sifatida tasvirlanadi.

Obrazlar tahlili

Bola obrazi

Asardagi bola obrazi beg'uborlik va samimiyat timsolidir. Uning oddiy muzqaymoqqa bo'lgan qiziqishi orqali bolalarga xos sof his-tuyg'ular ochib beriladi. Muallif bolaning ruhiy holatini tabiiy va ta'sirchan tasvirlaydi.

Bola qalbidagi armon va quvonch o'quvchini befarq qoldirmaydi. Shu jihatdan obraz umumlashma xarakter kasb etadi.

Kattalar obrazi

Hikoyadagi kattalar obrazi ikki xil ma'naviy dunyoni ifodalaydi:

mehribon va rahmdil insonlar;

loqayd va befarq kishilar.

Yozuvchi aynan shu qarama-qarshilik orqali jamiyatdagi ma'naviy tafovutlarni ko'rsatishga erishadi.

Badiiy vositalar va yozuvchi uslubi

Odil Yoqubov hikoyada sodda, xalqona va ta'sirchan uslubdan foydalanadi. Dialoglarning tabiiyligi asarning hayotiylikini oshiradi.

“Muzqaymoq” obrazi ramziy ma'no kasb etib, bolalikning nozik va o'tkinchi quvonchlarini ifodalaydi.

Muallif ortiqcha tasvirlarga berilmaydi. Ixchamlik va mazmunning chuqurligi hikoyaning badiiy qimmatini oshirgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Tahlillar natijasida Odil Yoqubovning Muzqaymoq hikoyasi kichik hajmli bo'lishiga qaramay, katta ma'naviy-estetik mazmunga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida quyidagi natijalarga erishildi:

hikoyada bolalar ruhiyati chuqur psixologik tasvirlangan;

muzqaymoq obrazi ramziy ma'noda qo'llangan;

asarda ijtimoiy tengsizlik masalasi badiiy ifodalangan;

yozuvchining sodda va ta'sirchan uslubi hikoyaning badiiy qiymatini oshirgan;

hikoya tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir ijodkorning boshqalardan ajratib turadigan o'z uslubi mavjud bo'lib, Odil Yoqubovning o'ziga xosligi haqida tanqidchi U. Normatov quyidagi fikrni bildiradi: "Adabiyotshunoslikda biografik metod degan ilmiy maktab bor. Bu maktab tarafdorlari ijodkor asarlarida muallif biografiyasi, shaxsiyati bilan aloqador jihatlarni tadqiq etadi. Afsus, bu ilmiy maktab bizda hali to'la to'lis shakllangan emas Odil Yoqubov ijodi ayni shu muammoni tekshirish uchun g'oyat boy material beradi".

Huddi shunday Odil Yoqubov ijodi jonliligi bilan doim o'z kitobxonlarini topgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi: "Muzqaymoq" hikoyasi kichik hajmli bo'lsa-da, chuqur ma'naviy-psixologik mazmunga ega ekani aniqlandi.

Hikoyada bolalar ruhiyatining tabiiy va ishonarli tasviri yozuvchining yuksak badiiy mahoratini ko'rsatadi.

"Muzqaymoq" detali ramziy obraz sifatida asarning asosiy g'oyasini ochishga xizmat qilishi tadqiq etildi.

Asarda insoniylik va mehr-oqibat masalasi yetakchi estetik tamoyil sifatida namoyon bo'lishi isbotlandi.

Hikoya bugungi jamiyat uchun ham dolzarb tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Odil Yoqubov o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri sifatida milliy nasr rivojiga katta hissa qo'shgan ijodkordir. Uning asarlarida inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar va jamiyat muammolari chuqur badiiy talqin etiladi. Mazkur tahlilga olingan "Muzqaymoq" hikoyasidagi ramziylik, o'sha davr siyosiy-ijtimoiy xol axvoli ko'rib chiqildi.

Hikoyada tilga olingan muzqaymoq shirinligi orqali yozuvchi katta ma'no va har narsaning o'z vaqti bo'lishiga ishora qiladi. Muzqaymoq hikoyasi ham yozuvchining yuksak badiiy mahoratini namoyon etuvchi asarlardan biridir. Hikoyada oddiy voqea orqali katta ma'naviy masalalar yoritilib, insoniy mehr va bolalar qalbining beg'uborligi ta'sirchan ifodalangan. Asar bugungi kunda ham o'zining tarbiyaviy va estetik ahamiyatini yo'qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yoqubov O. Muzqaymoq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. Qo'shjonov M. O'zbek nasri va badiiy mahorat masalalari. – Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Umarali Normatov. Ijod sehri. "Sharq" nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent- 2007. 105- bet.
6. <https://tafakkur.net/>
7. <https://www.scribd.com>